

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK TIZIMIDA FUQAROLIKNI OLISH  
VA FUQAROLIKDAN CHIQARISH ASOSLARI

**Fozilova Hurriyat Namoz qizi**

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi 1-  
kurs talabasi*

**Annotasiya:** ushbu maqolada fuqaro, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el fuqarolari tushunchalariga ta'rif va O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida O'RQ-610-sonli ga qisqacha sharh berilgan. Ushbu qonundagi asosiy tushunchalarga va masalalarga to'xtalib o'tilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va uning turlari tartibi, chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsni qabul qilish fuqarolikni tiklash, undan chiqarish, fuqarolikni tugatish sabablari, bolaning farzandlikka olish tartibi va uning fuqarolik holati o'zgarishi haqida keltirib o'tilgan. Shu jumladan qanday yo'l orqali fuqarolikni saqlab qolish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik, xalqaro shartnoma, fuqarolikni olish va yo'qotish, chet davlat fuqarosi, huquqni muhofaza qilish, konsul va farmon.

## KIRISH

Avvalambor, fuqarolik tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, fuqarolik bu jismoniy shaxsning ma'lum bir davlat bilan huquqiy bog'lanishidir. Fuqarolikka ega shaxs fuqaro deyiladi. Bu fuqaroning biron- bir davlatga nisbatan bo'lgan huquq va burchlari hamda uning o'sha davlat tomonidan himoya qilinishida namoyon bo'ladi. Asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 22-moddasida O'zbekiston Respublikasi butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi unga qanday asoslarga ega bo'lganligidan qati'nazar hamma uchun tengdir. Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmatini asosiy huquqlari va erkinliklarini etirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy – huquqiy aloqasini belgilaydi. Asosan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini quyidagi hollarda olinadi:

- tug'ilganlik bo'yicha
- bola farzandlikka olinganida

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va tiklash natijasida O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomlarida va ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra olinishi mumkin, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tug'ilganlik bo'yicha olish – bola o'zining tug'ilgan joyidan qati'y nazar agar tug'ilgan paytda bolaning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa, boshqasi esa chet davlat fuqarosi bo'lsa tug'ilgan bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi. O'zbekiston

Respublikasi hududida tugʻilgan ota-onasi fuqaroligi boʻlmagan shaxslardan boʻlgan bola tugʻilganlik boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi.

Bola farzandlikka olinganda - Oʻzbekiston Respublikasi hududida tugʻilgan ota-onasi u tugʻilgan paytda chet davlat fuqarolari boʻlgan yoxud ota -onasidan biri chet davlat fuqarosi boshqasi esa fuqaroligi boʻlmagan shaxsdan boʻlgan bola tugʻilgan boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini olmaydi. Biri Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi boshqasi esa chet davlat fuqarosi boʻlgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan chet davlat fuqarosi boʻlgan yoxud fuqaroligi boʻlmagan shaxsdan boʻlgan bola farzandlikka oluvchilarning oʻzaro keleshuviga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasida farzandlikka olingan bola Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi.

Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilish turlari:

- umumiy tartibda
- soddalashtirilgan va alohida tartibda

Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishning umumiy tartibi chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi boʻlmagan shaxsga nisbatan quyidagicha : chet davlat fuqaroligidan chiqish rasmiylashtirilgan boʻlsa fuqaroligi boʻlmagan shaxsga yashash guvohnomasi olingan kundan eʼtiboran va Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish toʻgʻrisidagi iltimosnoma bilan murojaat qilingan kunga qadar Oʻzbekiston Respublikasi hududida uzluksiz besh yil davomida doimiy yashab kelayotgan boʻlsa soddalashtirilgan tartibda :

Oʻzbekiston Respublikasi hududida yashaydigan va Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi boʻlgan , nasl-nasabi shajarasi boʻyicha toʻgʻri tutashgan loaqal bitta oʻzidan oldingi qarindoshig ega boʻlsa : Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligini bir martadan ortiq tiklashiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi holatlarda tugatiladi: Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligini yoʻqotganda Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligi – shaxs chet davlatning harbiy xizmatiga xavfsizlik organlariga huquqni muhofaza qiluvchi organlariga davlat hokimiyati va boshqaruv organlari xizmatiga kirganligi oqibatida, agar xorijda doimiy yashovchi shaxs yetti yil mobaynida uzurli sabablarsiz doimiy konsullik hisobiga turmagan boʻlsa , agar shaxs ixtiyoriy ravishda chet davlatning fuqaroligini olgan boʻlsa tugatiladi. Shaxsning Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini yoʻqotganligi uning erini va farzandlarining fuqaroligi oʻzgarishiga sabab boʻlmaydi. Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini yoʻqotish faqatgina Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni chiqqan kundan boshlab kuchga kiradi. Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini yoʻqotish toʻgʻrisidagi hujjatlarni topshirish istagida boʻlgan shaxs Bosh konsulxonaga murojaat qilish taʼlab etiladi. Shu yoʻllar orqali Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligi tugatiladi.

Xulosa qismida shuni taʼkidlashimiz joizki, barcha davlatlarda boʻlgani kabi Oʻzbekiston Respublikasida ham Fuqarolik qonuniy asoslarda mustahkamlab qoʻyilgan. Oʻzbekiston Respublikasida Fuqarolikka oid masalalar Oʻzbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik to`g`risidagi O`RQ-610 va xalqaro shartnomalarning fuqarolikka oid hamda O`zbekiston Respublikasi tomonidan e`tirof e`tilgan normalar orqali tartibga solinadi. Yuqorida keltirilgan hujjatlar fuqarolik holatlarini huquqiy jihatdan tartibga solinadi. Davlatimizda barcha rivojlangan huquqiy-demokratik mamlakatlarda belgilangani kabi shaxsning fuqarolik holatidan qat`iy nazar inson huquq va erkinliklari huquqiy asoslarda ta`minlab qo`yilgan. Shaxsning huquqiy holati fuqaro, fuqaroligi bo`lmagan shaxs va chet el fuqarosi bo`lganda uning huquq va majburiyatlari qonunda belgilab o`tilgan. Ular ushbu qonunga asosan o`z huquq va erkinliklarini hamda majburiyatlarini amalaga oshiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O`zbekiston. Toshkent – 2023.
- 2.O`zbekiston Respublikasi Fuqaroligi to`g`risidagi O`RQ-610-sonli 2020 – yil 1-apreldan kuchga kirgan
- 3.<https://wikipedia.uz.org>.
4. advice.uz
5. “Turkiston – press”.